

AHOLINING O'ZINI O'ZI BANDLIGINI TA'MINLASHDA AUTSORSING YANGI SHAKLINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMI.

Bobojonova M.J

Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi

Naimova N.A

Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: *Xorijda aholining o'zi o'zini ish bilan bandligini ta'minlashning yangi shakli sifatida "autsorsing" xizmatlari rivojlanmoqda. Maqolada "Autorsing" (outsourcing) nima? (out - tashqi, source - manba) ing. Autorsing – bu sizning firmangiz faoliyatiga xizmat ko'rsatish funksiyasining bir qismini boshqa bajaruvchi tashkilotga berish kabi ma'lumotlar bilan bo'lishamiz. Bu bilan autsorsing sohasida qanaqa yangiliklar joriy qilinishishi haqida gapirib o'tamiz. Autorsingni qanday afzalliklari haqida ham gapirib o'tamiz.*

Tayanch so'zlar: *autsorsing, tadbirkorlik, xarajatlar, IT autsorsing, buxgalteriya, korxona.*

"Autorsing" (inglizcha «outsourcing» – tashqi pudrat) – bu tashkilot tomonidan ishlab chiqarish-tadbirkorlik faoliyatining muayyan turlari yoki funkstiyalarini shartnoma asosida kerakli sohada faoliyat yuritayotgan boshqa kompaniyaga yoki jismoniy shaxs tomonidan o'tkazilishidir.

Autorsing - bu xarajatlarni minimallashtirish, sifatni ta'minlash (yaxshilash) va belgilangan muddatlarga rioya qilish maqsadida yuqori ixtisoslashgan kompaniyalar yoki alohida mutaxassislarni jalb qilish orqali mijozning asosiy bo'lmagan funkstiyalarini bajarishni o'z ichiga olgan xizmat turidir. Hozirgi vaqtda shtatdagi xodimlarni ta'minlashdan ko'ra autsorsing xizmatlaridan va ayniqsa, autsorsing buxgalteriya xizmatlaridan keng foydalanilmoqda. Masalan, Belarusda - 30%, Evropada - 86%, AQShda - 92%, eng yuqori ko'rsatkich esa - Isroilda bo'lib, 96% ni tashkil etadi.

Hozirgi vaqtda kompaniyalar bozor tomonidan misli ko'rilmagan tazyiqqa duch kelishadi. O'z tovar va xizmatlarini yuqori sifatini saqlagan xolda operasion xarajatlarni pasaytirishga erishib, biznesni samarali shaklda tashkil qilayotgan tashkilotlarga muvaffaqiyatga erishishadi va yashab qoladilar. Raqobatda ustunlikka erishish imkonini beruvchi zamonaviy va muvaffaqiyatli biznes modellardan biri – autsorsingdir.

Autorsing turlari. Autorsingning quyidagi (asosiy) turlari keng tarqalgan: buxgalterlik, yuridik, kadrlar bo'yicha, IT autsorsing, binoni yig'ishtirish (klining), ko'chmas mulk ob'ektlaridan foydalanish autsorsingi, logistik yoki transport autsorsingi, xodimlar autsorsingi.

Autsorsing tamoyili: *“o’zrimda faqatgina boshqalardan yaxshiroq bajara oladiganimni qoldiraman, tashqi bajaruvchiga u boshqalardan yaxshiroq bajara oladiganini beraman”*.

Autsorsingning afzalliklari:

1. Mablag`larni tejash. Autsorsing xizmatining narxi o`zingizda shunday strukturani qurish xarajatlariga qaraganda arzon. Siz xodimlaringizga hisoblangan ish haqiga nisbatan ijtimoiy sug`urtaga ajratma qilishingiz, hamda daromad solig`i ushlab qolishga majbursiz. Autsorser xizmatining qiymati bu sizning xarajatingiz hisoblanib, soliqqa tortiladigan bazani kamaytiradi.

2. Ish o`rnini tejash. O`zingizda tegishli strukturani yaratish uchun qo`shimcha ofis maydonchasini, orgtexnikani, kanstelyariya xarajatlarini, axborot-huquqiy tizimlarini va listenziyalangan dasturiy ta`minotni talab qilishi mumkin

3. Doimiy uzluksiz ish. O`z ishchi va xodimlaringizga siz yillik mehnat ta`tili, kasallik nafaqasi berishga majbursiz. Autsorser firma doimiy ishlaydi.

4. Vaqtini tejash. Kadrlarni tanlash – vaqt talab qiladigan oddiy bo`lmagan masala hisoblanadi. Sizga zarur bo`lgan infratuzilma, texnologiyalar va mutaxassislar bizda etarlicha mavjud.

5. Kafolatlangan sifat. Autsorser firma o`z shtatida yuqori malakali mutaxassislar komandasi mavjud va bunday loyihalarni bajarishda boy tajribaga ega.

Xorijiy va mahalliy kompaniyalar tomonidan autsorsingdan foydalanish tajribasini tahlil qilish asosida bozorda aniq xizmatlarni etkazib beruvchilar sifatida autsorsinglarga qo`yiladigan quyidagi talablarni shakllantirish lozim:

- biznesning yuqori dinamikasini tushunish;
- mijozning biznes jarayonlarini aniq idrok etish;
- uslubiy bazasining mavjudligi;
- kasbiy bilimlarni birlashtirish va uzatish;
- samarali muloqot muhitini yaratish;
- mas`uliyatni jamlash;
- shartnomani amalga oshirish jarayonini hujjatlashtirish.

Shuningdek, mikro va kichik korxonalar uchun autsorsing buxgalteriya xizmatlari hisobni yuritishning eng optimal usulidir. Bunday holatda korxona yuqori malakali, mas`uliyatli, faqatgina buxgalteriya sohasida emas, balki kadrlar bo`yicha, yuridik hamda soliq masalalari bo`yicha maslahatlar olish imkoniga ega bo`ladi.

**Autsorsing buxgalteriya xizmatini ko`rsatuvchi korxona bilan hamkorlik qilish tadbirkorlarga bir qator qulayliklar yaratadi:** Autsorserlarga topshirilgan vazifalar yuqori sifatli, operativ va kam xarajat talab etadi, chunki tadbirkorlar autsorserlar ularning shtatida bo`lmagani sababli ularga oylik maoshdan kelib chiqadigan soliqlar,

ofis jihozlari, moddiy-texnik ta'minot, arenda, aloqa va internet kabi ishlarni tashkil etib beradilar.

Mijoz uchun autsorsing xizmatlaridan foydalanishda aniq vazifalarga ega bo'lgan maqsadlar ro'yxatini taklif qilamiz.

- xarajatlardan forig' bo'lishadi. Bu xarajatlarni optimallashtirish orqali moliyaviy natijalarni 20-30%ga yaxshilash imkonini beradi.

- Autsorsing buxgalteriya xizmatlaridan foydalanganda maxfiy (konfidestial) ma'lumotlarning oshkor bo'lishi oldi olinadi;

- Xizmatdan foydalanish orqali bir emas, bir necha yuqori malakali hisobchi mutaxassis guruhiga ega bo'lish mumkin;

- Buxgalteriya hisobini yuritishdagi xato va kamchiliklardan, ortiqcha ovoragarchiliklardan ozod qiladi;

Autsorserlar buxgalteriya va soliq hisobini yuritishdan tashqari boshqa qo'shimcha xizmatlarni, masalan, kadrlar buyicha va yuridik xizmatlarni ham taklif etadi. Ta'kidlash joizki, shtatdagi buxgalterlar har doim ham bunday qo'shimcha masalarlarni hal etishni o'z zimmalariga olaverishmaydi, qo'shimcha mutaxassislarni yollash esa korxona xarajatlarini oshiradi;

Autsorsing korxonalarga buxgalteriyani istalgan bosqichda topshirish imkoniyati mavjud. Agar korxona buxgalteriyasi xato va kamchiliklar bilan maxsus dasturlardan foydalanilmay yuritilgan bulsa, autsorsing buxgalteriya korxonalari bunday talabga javob bermaydigan buxgalteriyani qayta tiklash orqali to'g'ri va aniq holatga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abidovna, A. S. (2023). Special directions of tourism development in Bukhara region: problems and solutions. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 21, 51-55.

2. Supiyevna, B. M. (2024). O'ZBEKISTONDAGI XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH VA AHOLINI ISH BILAN BAND ETISH YO'LLARI. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 4(08), 78-84.

3. Supiyevna, B. M. (2024). TIZIMIDA BANK FINANCIAL SERVICE NUMBER: DEVELOPMENT AND OLD TURGAN. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 379-385.

4. Jumayeva, Z. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING O'RNI VA UNING AHAMIYATI. *Modern Science and Research*, 3(6).

5. Bazarova, M. S. (2022). FACTORS THAT ENSURE THE SUCCESSFUL IMPLEMENTATION OF A SYSTEM OF KEY PERFORMANCE INDICATORS IN THE.

6. Xudoy nazarovich, S. A. (2024). KADRLAR BOSHQARUVI XUSUSIY OTMLARDA: XUSUSIYATLARI, YONDASHUVLARI VA MUAMMOLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 54, 70-77.
7. Shadiyev, A. (2024). PERSONNEL MANAGEMENT SYSTEM IN ENTERPRISES AND ORGANIZATIONS. *Modern Science and Research*, 3(8), 10-18.
8. Alisher, S. (2024). ACTUAL PROBLEMS OF DIGITAL ECONOMY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 366-372.
9. Ikromov, E. (2024). THEORETICAL FOUNDATIONS FOR THE ORGANIZATION AND CAPACITY BUILDING OF EXECUTIVE EMPLOYEE LABOR IN PUBLIC ADMINISTRATION BODIES. *Modern Science and Research*, 3(1), 939-946.
10. Ibodulloyevich, I. E. (2023). KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI YANADA RIVOJLANTIRISH UCHUN QULAY ISHBILARMONLIK MUHITINI SHAKLLANTIRISH. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 481-484.
11. Hakimovich, T. M. (2024). Personalni Rag'batlantirish. *Miasto Przyszłości*, 53, 524-531.
12. Hakimovich, T. M. (2024). ZAMONAVIY BOSHQARUV VA RAQAMLASHTIRISH.
13. Khalilov, B. B. (2024). MANAGERIAL ACCOUNTING-THE LANGUAGE OF BUSINESS MANAGEMENT. *Gospodarka i Innowacje.*, 49, 249-255.
14. Bahodirovich, K. B. (2024). FINANCIAL LEVERAGE RATIOS AND ANALYSIS. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 11(11), 418-426.
15. To'rayevna, S. N. (2023). YANGI IQTISODIYOTDA RAQAMLI MEHNAT.
16. Sodiqova, N. (2024). IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA INNOVATSION SIYOSAT VA UNING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI. *Modern Science and Research*, 3(6).
17. Tohir o'g'li, M. T., & To'rayevna, S. N. (2024). O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSION SIYOSAT. ZAMONAVIY TA'LIMDA FAN VA INNOVATSION TADQIQOTLAR JURNALI, 2(14), 45-53.
18. Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). RAQOBAT TUSHUNCHASI, UNING TURLARI VA USULLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(2), 459-463.
19. Akbarovna, N. N. (2024). Oliy Ta'lim Muassasalarining Innovatsion Faoliyat Natijalarini Tijoratlashtirish Muammolari Va Ularni Hal Etish Yo 'llari. *Miasto Przyszłości*, 54, 857-866.

20. Akbarovna, N. N. (2023). MULKCHILIK MUNOSABATLARINING JAMIYATDAGI TUTGAN O'RNI.
21. Naimova, N. (2024). THE COUNTRY'S ECONOMIC POTENTIAL IN DIGITAL ECONOMY AND E-COMMERCE DEVELOPMENT. *Modern Science and Research*, 3(2), 234-239.
22. Akbarovna, N. N. (2023). BULUTLI HISOBLASH TEXNOLOGIYALARINING IQTISODIYOTDA TURGAN ORNI. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 517-520.
23. Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). RAQOBAT TUSHUNCHASI, UNING TURLARI VA USULLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(2), 459-463.
24. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). TASHKILOTNING INNOVATSION FAOLIYATI SAMARALIGINI BAHOLASH. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(2), 286-294.
25. Qudratova, G. M. (2024). METHODOLOGY FOR ASSESSING THE COMPETITIVENESS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. *Gospodarka i Innowacje.*, 51, 191-195.
26. Mahmudovna, Q. G. (2024). RAQOBAT STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISHDA RAQOBATNI BAHOLASH USULLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 48, 715-720.
27. Otkirovich, N. S. (2024). Yashil Iqtisodiyotda Raqamli Transformatsiya. *Miasto Przyszłości*, 54, 1356-1364.
28. qizi Bobojonova, M. J. (2023). AGROTURIZMNING IQTISODIYOTDA O 'RNI, SALOHIYATI VA INFRATUZILMASINI YAXSHILASH. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(8), 48-52.
29. Djurayeva, M. S. (2024). ORGANIZATIONAL STRUCTURE OF A MODERN ENTERPRISE. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 11(12), 222-227.
30. Sadilloyevna, D. M. (2024). ROLE OF COMMERCIAL BANKS IN THE DEVELOPMENT OF THE MODERN ECONOMIC SYSTEM. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 11(11), 241-248.
31. Sadullayevna, D. M. (2024). BASICS OF DIGITAL MARKETING. *Gospodarka i Innowacje.*, 51, 160-166.
32. кизи Рахмонкулова, Н. О. (2023). КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИНИНГ ХУДУДЛАР ИҚТИСОДИЁТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ. "Экономика и туризм" международный научно-инновационной журнал, 6(14).
33. Nafisa, R. (2024). Formation of a Strategy for Sustainable Development of the National Economy. *Miasto Przyszłości*, 54, 764-771.

34. Rakhmonkulova, N. (2024). Prospects for the Development of the Economy of Uzbekistan. *JOURNAL OF INTELLECTUAL PRPERTY AND HUMAN RIGHTS*, 3(10), 37-44.

35. Lolaxon, R. (2024). THE ROLE OF MARKETING STRATEGIES IN TOURISM POTENTIAL OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 11(11), 230-240.

36. Lolakhon, R. (2024). APPLICATION OF THE 4P CONCEPT IN TOURISM. *Gospodarka i Innowacje*, 51, 138-145.

37. Turayevich, I. A. (2024). Milliy Iqtisodiyotga Xorijiy Investitsiyalarni Jalb Qilishda Soliqlarning O 'Rni. *Gospodarka i Innowacje*, 53, 205-213.

38. Aziz, I. (2023). O'zbekistonda xorijiy investitsiyani jalb qilishni soliqlar vositasida rag'batlantirish yo'llari. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 1(5), 191-196.

39. Ibragimov, A. T. (2024). MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSIYANI JALB QILISHNI SOLIQLAR VOSITASIDA RAG 'BATLANTIRISH. *Gospodarka i Innowacje*, 51, 116-122.

40. Turayevich, I. A. (2024). Iqtisodiyotga Investitsiyalarni Jalb Qilish Va Boshqarishning O 'Ziga Xos Xususiyatlari. *Miasto Przyszłości*, 53, 1231-1237.

41. Azimov, B., Toshev, F., & Raximova, D. TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA.

42. TEMPUS, I. (2016). Towards the ModernisATion of Higher Education InstitutionS in Uzbekistan (MATcHES). *TEMPUS*, 4, 2007-2013.

43. Azimov, B. F., & Gulomov, O. H. (2017). Organizational structures of innovation support services: inter-organizational cooperation associations. *Инновационное развитие*, (6), 35-37.

44. Akhmedov, Y., Asadov, S., & Azimov, B. (2022, December). Two-sided estimation of linear approximation error second-order hypersurfaces. In *Journal of Physics: Conference Series* (Vol. 2388, No. 1, p. 012124). IOP Publishing.